

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17442360>

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATINI ILMIY TADQIQ QILISH

Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti i.f.f.d (PhD)

ORCID: 0009-0007-5218-9668

ibadullayevsanjar5555@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq ma'muriyatchiligining nazariy jihatlarini, uning tarkibiy xususiyatlari va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida rivojlanishi o'rganiladi. Soliq ma'muriyatchiligida soliqlarni yig'ish, nazorat qilish va soliq tizimini samarali boshqarishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi soliq ma'muriyatchiligining yangi shakllari va usullarini shakllantirishga hissa qo'shayotganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, soliq tizimi, soliq nazorati, soliq xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, fiskal siyosat, soliq majburiyatlari

KIRISH.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab olgan raqamli transformatsiya sharoitida davlat moliyaviy tizimining, ayniqsa soliq sohasining samaradorligi va barqarorligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida umumiy tushumning katta qismini tashkil etadi, shu bois soliq ma'muriyati faoliyatini takomillashtirish nafaqat budjet barqarorligini, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy muhitda soliq tizimi doimiy ravishda yangilanib, uning vazifalari iqtisodiy jarayonlar dinamikasiga moslashib bormoqda. Ilgarigi davrlarda asosiy e'tibor soliq yukini kamaytirish va huquqiy normalarni muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda soliq ma'muriyatini raqamli texnologiyalar asosida isloh etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini shakllantirib, an'anaviy nazorat va boshqaruv usullarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi soliq organlari faoliyatining tezkorligi, ochiqqligi va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli soliq ma'muriyati nafaqat texnologik yangilanish, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi modeliga asoslangan tizimli transformatsiya jarayonidir.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Soliq ma'muriyatchiligining muammoli masalalari xususan, iqtisodiyotni

raqamlashtirish sharoitida ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vaxobov, F.Fayziyev, Sh.Musalimov, U.Pardayev, X.Nasrullayev, G.Safarov, Sh.To'rayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mavzuga doir xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari o'rganilgan bolib, bunda L.I. Goncharenkoning fikriga ko'ra (2010), "Soliq tizimi quyidagi tarkibiy bo'g'inlar majmuasidan iborat: davlat budjetiga o'tkaziladigan soliqlar; soliq organlarining vakolat va majburiyatlari; hamda soliq to'lovlarini ma'muriy boshqarishga oid soliq organlarining faoliyati. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarni boshqarish har bir bo'g'inni tartibga solishga qaratilgan vakolatli organlar faoliyati sifatida tavsiflanadi".

Soliq tekshiruvlarini raqamlashtirish zaruriyati xususida fikr bildirgan olimlardan Gupta va boshqalar shunday deb ta'kidlaydi (2017): "Raqamlashtirish soliq ma'muriyatlari faoliyatini o'zgartirib, jarayon samaradorligi va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga yordam beradi. Yorqin misol –firmalar va soliq organi o'rtasida hisob-kitob ma'lumotlarini avtomatik tarzda o'tkazish imkonini beruvchi elektron hisobvara-fakturaning (e-invoysing) qabul qilinishi".

S.A.Suljenko esa (2020): "Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari qatoriga iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi oson va tezkor kommunikatsiyani kiritish mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlari hamda xizmatlar sohasini samarali va tezkor tartibda boshqarish imkonini beradi. Bunday turdagi iqtisodiyot global miqyosda nisbatan soddalik bilan takomillashishi, turli xil davlat xizmatlari va ma'muriy jarayonlarga integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda iqtisodiyotning raqamli maydonga o'tish jarayonlari yangi turdagi biznes-modellarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda, xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning innovatsion usullarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda".

Isayev o'z tadqiqot ishida raqamlashtirishning soliq ma'murchiligidagi ahamiyatini o'rganib, uning samaradorligini quyidagicha izohlagan: "Raqamlashtirish soliqlarni tahlil qilish va ular bo'yicha aniq xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada tizimli tahlil, qiyosiy va mantiqiy umumlashtirish usullari, shuningdek, amaliy ma'lumotlarni taqqoslash va guruhlash metodlaridan samarali foydalanildi. Ushbu yondashuv soliq ma'muriyatining raqamli transformatsiyasini ilmiy asosda baholash va uni takomillashtirish imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Soliq ma'muriyatchiligi tushunchasini nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ayniqsa raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan bugungi iqtisodiy sharoitda, samarali soliq tizimini shakllantirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotda soliq ma'muriyatchiligi kategoriyasining evolyusiyasi, soliq tizimidagi institutsional roli, soliq nazorati bilan o'zaro bog'liqligi va raqamli iqtisodiyot ta'siridagi transformatsiya jarayonlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davridan boshlab ushbu tushuncha ilmiy va amaliy faoliyatda qo'llanib kelinmoqda, biroq hanz uning yagona huquqiy ta'rifi shakllantirilmagan. Ilmiy manbalar tahlili soliq ma'muriyatchiligining mazmuni va funksional xususiyatlariga nisbatan turli


nazariy yondashuvlar mavjudligini tadqiqotimiz davomida aniqlandi:

tashkilotchi-boshqaruvchi yondashuv nuqtai nazaridan, A.M. Mamurov, M.S. Mishenina va L.V. Maksimova kabi olimlar "...solliq ma'muriyatchiligini solliq to'lovchilar hamda davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali boshqarishga qaratilgan amaliy mexanizm, ya'ni ma'muriy tadbirlar va tashkiliy chora-tadbirlar majmui sifatida"⁴¹ ta'riflaydilar. Shu bilan birga, M.V. Mishustinning fikricha, Solliq ma'muriyatchiligi "ratsional-huquqiy hokimiyatning ma'muriy shakli" bo'lib, uning mohiyati solliq me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish jarayonida namoyon bo'ladi;

A.V. Aronov va V.A. Kashinlar fikriga ko'ra, "solliq mexanizmi — iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar sharoitida uning barqaror va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi **usullar, vositalar hamda axborot-ta'minlash vositalari tizimi** sifatida"⁴² izohlanadi;

Ye.A. Fedorov, L.G. Baranova va V.S. Fedorova kabi tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli yondashuvlarda ilgari surilib, ularning fikricha, "solliq mexanizmi rejalashtirish, prognozlashtirish, nazorat va tahlil kabi elementlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali tizim"⁴³ hisoblanadi.

Solliq tizimining barcha tuzilmaviy elementlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, shakllanayotgan solliq munosabatlarning ko'p qirrali xususiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish funksiyalari Solliq ma'muriyatchiligi orqali amalga oshiriladi, bu esa uni solliq tizimini boshqarishning muhim tarkibiy elementi sifatida baholash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Solliq tizimining asosiy elementlari

⁴¹ Мамуров, А.М. Управление налогообложением в налоговой системе / А.М. Мамуров // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – 2013. – № 10. – С. 139-145.

⁴² Аронов, А.В. Налоги и налогообложение : учеб. пособие / А.В. Аронов, В.А. Кашин. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 2015. – 576 с

⁴³ Федоров, Е.А. Налоговый контроль как элемент налогового администрирования / Е.А. Федоров, Л.Г. Баранова, В.С. Федорова // Известия Петербургского университета путей сообщения. – 2014. – № 3. – С. 176-182.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar soliq ma'muriyatchiligi tushunchasini soliq nazorati bilan tenglashtiradilar, bu esa ilmiy nuqtai nazardan tushunchalarning chalkashligiga sabab bo'ladi. Aslida, soliq ma'muriyatchiligi - soliq nazoratini qamrab olgan, ammo undan kengroq va kompleks tizimdir. Soliq nazorati faqat soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish bilan cheklansa, soliq ma'muriyatchiligi soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliq bazasini shakllantirish, hisobotlarni yuritish va to'lovlarni nazorat qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- 1) qamrov darajasi bo'yicha;
- 2) funksional maqsad bo'yicha;
- 3) tuzilmaviy jihatdan;
- 4) amaliyot yo'nalishi bo'yicha;
- 5) natija jihatidan.

Qamrov nuqtai nazaridan soliq ma'muriyatchiligi davlatning fiskal siyosatini amalga oshirishda rejalashtirish, hisobga olish, yig'implarni tashkil etish, tahlil hamda nazoratni o'z ichiga olgan murakkab va integratsiyalashgan boshqaruv tizimidir. Soliq nazorati esa ushbu tizimning tarkibiy bo'g'ini sifatida faqat soliq to'lovchilar faoliyatining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini baholash bilan cheklanadi. Shu jihatdan, soliq ma'muriyatchiligining asosiy maqsadi soliq tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bo'lsa, nazoratning vazifasi to'g'ridan-to'g'ri qonunbuzarlik holatlarini aniqlash va ularning oldini olishdan iborat. Tuzilmaviy jihatdan soliq nazorati ma'muriy jarayonning ichki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi va u tizimli tahlil hamda tekshiruv orqali samaradorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, amaliyot nuqtai nazaridan soliq ma'muriyatchiligi profilaktika, rejalashtirish va tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab olsa, nazorat faoliyati tahlil va baholash jarayonlariga yo'naltirilgan. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, soliq ma'muriyatchiligini huquqiy, tashkiliy-ma'muriy va iqtisodiy mezonlar asosida tahlil etish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shuni e'tirof etish lozimki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq hisobi mustaqil ravishda soliq ma'muriyatchiligi emas, balki keyingi soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati jarayonlarini amalga oshirish uchun metodologik hamda axborot bazasi vazifasini bajaradi. Shu bois, vakolatli soliq ma'muriyatchiligi tomonidan moliyaviy hisobotni qabul qilish jarayoni tahlilida ushbu farqni hisobga olish zarur, zero mazkur jarayon aniq bir soliq turini ma'muriy boshqarishni qamrab olmaydi. Shuningdek, soliq ma'muriyatchiligi tizimini mustaqil ilmiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq ma'muriyatchiligining mohiyatiga oid xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi mazmunan ikki jihatdan — keng va tor ma'noda izohlanadi. Keng ma'noda u davlatning soliq siyosatini amalga oshirish, soliqlarni undirish va fiskal barqarorlikni ta'minlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan

boshqaruv tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Tor ma'noda esa — u vakolatli davlat organlarining soliq to'lovchilarning qonuniy majburiyatlarini bajarishlarini nazorat qilish hamda soliq intizomini ta'minlashga qaratilgan maqsadli faoliyatini ifodalaydi. Mazkur faoliyat soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish, soliq bazasini aniqlash, hisobotlarni qabul qilish va tahlil etish, to'lov majburiyatlari bajarilishini monitoring qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, u soliq daromadlarini shakllantirishning ajralmas bo'g'ini bo'lib, soliq kodeksida belgilangan huquqiy me'yorlarning amalda bajarilishini ta'minlaydi. Demak, soliq ma'muriyatchiligi tizimi soliq kodeksining institutsional va amaliy ijrosini kafolatlovchi, davlat fiskal siyosatining samaradorligini belgilovchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Shunday qilib, ko'rishimiz mumkinki, soliq ma'muriyatchiligi ko'p qirrali toifani ifodalaydi va ko'plab tarkibiy elementlardan iborat. Bizning fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligini uch nuqtai nazardan tahlil qilish zarur: huquqiy, ma'muriy va iqtisodiy.

Huquqiy nuqtai nazardan, soliq ma'muriyatchiligi — bu soliq to'lashdan bo'yin tovlash uchun javobgarlik belgilash va soliqqa tortish sohasidagi normativ-huquqiy maydonga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari funksiyalaridir.

A.V. Aronov va V.A. Kashinning fikriga ko'ra, soliq ma'muriyatchiligi - bu axborot bilan ta'minlash usullari, yo'llari va vositalari majmuasidir. Ularning yordamida davlat soliq mexanizmlari faoliyatini zarur yo'nalishga burib, daromadlarni yashirish uchun javobgarlik doirasini belgilaydi. Muallif ham ushbu qarashni qo'llab-quvvatlaydi. Vakolatli soliq ma'muriyatchiligi va soliq to'lovchi sub'ektlarning o'zaro munosabati qonunchilik yo'li bilan tartibga solinadi. Chunki soliqlar - bu majburiy xarajatlar bo'lib, jismoniy shaxslar va kompaniyalarga ularni amalga oshirish uchun normativ jihatdan mustahkamlangan mas'uliyat yuklatilgan. Bu esa soliq munosabatlari sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash zarurligini belgilaydi.

Biroq soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi soliq qonunchiligi bilan cheklanmaydi. U tarkibida huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinmaydigan elementlar ham mavjud, masalan: qaysi soliq sub'ektlarini tekshirish zarurligini aniqlash, soliq bazasini yashirish holatlarini belgilash, jismoniy va yuridik shaxslarga soliqqa oid maslahat xizmatlari ko'rsatish va boshqa ma'muriy jarayonlar.

Ma'muriy nuqtai nazardan, soliq ma'muriyatchiligi — bu davlatning soliq qonunchiligi sohasini tartibga solish jarayoni bo'lib, mamlakatdagi davlat boshqaruv organlari modeli, ularning funksional vazifalarini taqsimlash va o'zaro hamkorligi bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, soliq ma'muriyatchiligi - bu Soliq ma'muriyatchiligining vakolatiga kiruvchi funktsiya bo'lib, ular mamlakat budjet tizimiga eng ko'p miqdorda soliq to'lovlari va yig'implarni ta'minlaydi. A.Z. Dadashev va A.V. Lobanovning ta'kidlashicha, "soliq munosabatlarini amalga oshirishning tashkiliy-boshqaruv tizimi sifatida soliq ma'muriyatchiligi turli shakl va usullar majmuini o'z ichiga oladi. Ularning qo'llanilishi mamlakat budjet tizimiga soliq

tushumlarini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois soliq ma'muriyatchiligining maqsadi — soliq tushumlarini rejada belgilangan hajmda ta'minlash bo'lib, bu jarayon soliq tartibga solish va soliq nazorati usullarining optimal uyg'unligida amalga oshiriladi".

Yuqorida qayd etilgan barcha jihatlarni umumlashtirgan holda, biz ilmiy nuqtai nazardan, Soliq ma'muriyatchiligi - bu **soliq to'lovchilar hamda boshqa tegishli institutlar o'rtasidagi tashkiliy-huquqiy, axborot-kommunikatsion va iqtisodiy munosabatlar majmui** bo'lib, uning maqsadi davlat budjeti barqarorligini ta'minlash, soliq intizomini kuchaytirish va soliq yukining adolatli taqsimotini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu faoliyat davlat budjetiga soliq tushumlarini ta'minlash, soliq kodeksini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, soliq to'lashdan bo'yin tovlagan sub'ektlarni javobgarlikka tortish, soliq sub'ektlari va ob'ektlarini hisobga olish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga soliq masalalari bo'yicha maslahat berish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Soliq ma'muriyatchiligi bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik davlat va fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyot ekotizimida soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish madaniyatini mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'muriyatchiligi tizimini modernizatsiya qilish, uning konseptual modelini yangilash va raqamli boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Biz tomonidan raqamli soliq ma'muriyatchiligi davlat organlarining raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiradigan ommaviy boshqaruv faoliyati sifatida talqin etiladi, bu jarayon davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni uzluksiz muvofiqlashtirish va samarali tartibga solishni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv mamlakat budjet tizimi barqarorligini kafolatlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda soliq ma'muriyatchiligining mijozga yo'naltirilgan, shaffof va innovatsion faoliyat modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA.

Soliq ma'muriyatchiligining mazmuni ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi vakolatli davlat organlari ishtirokida shakllantirilgan soliq siyosatini amalga oshirish orqali soliq munosabatlarini tartibga solishdan iborat. U boshqa boshqaruv shakllaridan farq qiladigan davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan soliqqa oid o'zaro munosabatlarini ifodalaydi.

"Soliq ma'muriyatchiligi" tushunchasining keng umumqabul qilingan ta'rifi hozirgacha mavjud emas, bu esa mazkur atamaning huquqiy, boshqaruv va moliyaviy jihatlardan turlicha talqin qilinishiga olib kelmoqda.

Ilmiy-nazariy va amaliy sohada soliq ma'muriyatchiligini ko'pincha soliq nazorati bilan tenglashtirish hollari uchrasa-da, bu tushuncha ancha keng qamrovli bo'lib, budjetga soliq tushumlarini rejalashtirish va bashorat qilish, nazorat tadbirlari tizimi hamda mamlakat soliq tizimi samaradorligini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) qamrov darajasi bo'yicha; 2) funksional maqsad

bo'yicha; 3) tuzilmaviy jihatdan; 4) amaliyot yo'nalishi bo'yicha; 5) natija jihatidan.

Shunday qilib, soliq ma'muriyatchiligi boshqaruvning umumiy paradigmasi va amaliy qo'llanilishida muhim ilmiy-nazariy izlanish sohasi hisoblanadi. U turli ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning fundamental nazariyalariga asoslangan holda, milliy hamda xalqaro tajribalar bilan boyitilgan. Soliq ma'muriyatchiligi - bu davlat moliyaviy tizimining institutsional tuzilmalari bo'lib, ularning asosiy funksiyasi davlatning fiskal suverenitetini amalga oshirish, ya'ni soliqlar orqali majburiy moliyaviy resurslarni jamlash va ularni qayta taqsimlash jarayonlarini ta'minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Гончаренко, Л.И. (2010). К вопросу о понятийном аппарате налогового администрирования Налоги и налогообложение. № 2. – С. 17-24.
2. Сульженко, С.А. (2020). Развитие налогового администрирования в условиях цифровизации. Финансовые исследования. № 3 (68). – С. 71-81.
3. Мамуров, А.М. (2013). Управление налогообложением в налоговой системе. Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. № 10. – С. 139-145.
4. Аронов, А.В. (2015). Налоги и налогообложение : учеб. Пособие. 2-е изд., перераб. и доп. – М., – 576 с
5. Федоров, Е.А.(2014). Налоговый контроль как элемент налогового администрирования. Петербургского университета путей сообщения. № 3. – С. 176-182.
6. Хотамов К.Р. (2016) "Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш" диссертация и.ф.д., –Т.: - 136 б.
7. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
8. Абдукаримов Б. (2005) ва бошқ. Корхона иқтисодиёти. – Т.: Фан, , 220 б.
9. Sanjeev Gupta, Michael Keen, Alpa Shah, and Genevieve Verdier (2017) "Digital Revolutions in Public Finance" Chapter 2. "Digitalization and Taxation". International Monetary Fund. 26-27.
10. Кудбиев Ш: (2022) «Давлат солиқ хизмати органлари фаолияти энди янада шаффоф!» 01.12.2022 й.